KO'MAKCHILAR VA ULARNING O'ZBEK TILIDAGI AHAMIYATI

Qurbonova gavhar Xurramovna
Termiz davlat pedagogika instituti,O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi
v.b.dotsenti, F.f.f.d.(Phd)
Xurramova Gulshan Alisherovna
Termiz davlat pedagogika instituti,O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr boshlaridagi o'zbek tilshunoslik asarlarida bog'lovchilarning ifodalanishi, ularning grammatik xususiyatlari hamda tilshunos olimlar tomonidan berilgan izohlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bog'lovchilarning tasnifi, qo'llanish doirasi va sintaktik munosabatlarni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda davr tilshunosligining o'ziga xos jihatlari ilmiy manbalar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: bog'lovchi, tilshunoslik, grammatika, sintaksis, XX asr boshlari, o'zbek tili, ilmiy izoh, tasnif.

Аннотация. В данной статье анализируется выражение и толкование союзов в трудах по языкознанию начала XX века. Рассматриваются грамматические особенности союзов, их классификатsiя, сферы употребления и роль в формировании синтаксических отношений. На основе научных источников раскрываются особенности языкознания исследуемого периода.

Ключевые слова: союз, языкознание, грамматика, синтаксис, начало XX века, узбекский язык, научное толкование, классификатsiя.

Annotation. This article examines the expression and interpretation of conjunctions in linguistic works of the early twentieth century. The study analyzes the grammatical features, classification, usage, and syntactic functions of

conjunctions described by linguists of that period. The specific characteristics of early twentieth-century linguistics are revealed through scientific sources and comparative analysis.

Keywords: conjunction, linguistics, grammar, syntax, early twentieth century, Uzbek language, scientific interpretation, classification.

Lingvistik tipologiya tillarning qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat'iy nazar, ularning tuzilishi jihatidan yaqinlik, bog'liqlik darajasini tekshiradi, mavjud materiallar asosida muayyan hodisaning mohiyatini, tabiatini aniqlaydi. Ushbu maqolada obyektimiz bo'lgan yordamchi so'zlar, ya'ni ko'makchilar ham alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilingan.

Ko'makchilarning o'rganilishi hind amaliy tilshunosligining Panini, Yaski (eramizdan avvalgi V-IV asrlar) nomlari bilan[1:11]. Ular ko'makchilarga otlarning va fe'llarning ma'nolarini ko'rsatuvchi so'zlar deb baho berganlar. Ular ko'makchilarni morfologik prinsip asosida talqin etadilar. Eramizdan avvalgi III-II asrlarda amaliy ehtiyojlar tufayli emas, mantiqiy kategoriyalar bilan bog'liq ravishda ko'makchilar talqin etildi. Ko'makchilar talqinida ham yuklamalar singari bir xillik yo'q.

Ma'lumki, tilshunoslikda so'zlarni turkumlarga ajratishda morfologik, sintaktik va mazmuniy belgilar birgalikda olinadi[2:232]. Ko'makchilar ham shu uch belgi asosida turkumlangan. Ko'makchilar morfologik jihatdan mustaqil paradigmaga ega emasligi, sintaktik jihatdan gapning mustaqil bo'lagi bo'la olmasligi, mazmuniy jihatdan vosita, maqsad, sabab, vaqt va shu kabi boshqa munosabatlar anglata olishligi bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lgan bo'lsa ham, ular hozirgi zamonaviy o'zbek tilida leksik ma'nolarini yo'qotgan, lekin grammatik ma'nosi bor so'zlar.

Shuning uchun ham mustaqil so‘zlar bilan birgalikda ishlatiladi[3:541]. Ko‘makchilar obyektlar o‘rtasidagi makon, vaqt, sabab, maqsad, egalik, chegaralash kabi munosabatlarni ifodalaydi yoki obyektlarning harakatga, holatga, sifatga yuqoridagicha munosabatlarini bildiradi. Ko‘makchilarning xususiy ma’nolari biror kelishik formasidagi shaxs yoki predmet bilan qo‘shilgandagina yuzaga keladi[4:555]. Shuning uchun ham A.A.Shaxmatov ko‘makchilar kelishik formalari anglatgan ma’noni mustahkamlaydi, to‘ldiradi, kuchaytiradi, – deydi[5:97]. Ko‘makchilar xilma-xil grammatik munosabatlarni ifodalaydi. A.A.Shaxmatov birinchi bo‘lib ko‘makchilarning grammatik munosabatlarini sistemaga solishga harakat qildi. Rus tilshunosligida ko‘makchilar va ularning grammatik munosabatlari V.V.Vinogradov ishlarida to‘laqonli o‘z ifodasini topgan. Rus tilshunosligida ko‘makchi va uning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan ishlar talaygina, lekin V.V.Vinogradovniki singari to‘laqonli emas.

O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar an’anaviy tilshunoslikda shakliy-funksional tomondan ancha o‘rganilgan. So‘z turkumlari, xususan, yordamchi so‘z turkumlarini tadqiq qilish masalasi til tarixining ilk bosqichlaridanoq boshlangan.

Tilshunoslik sohasida qalam tebratgan sermahsul olimlardan biri Mahmud Zamaxshariy (XI-XI asr)ning grammatikaga doir asarlari ichida “Al-mufassal” (“Grammatika bo‘yicha mufassal kitob”) arab tili morfologiyasi va sintaksisini o‘rganishda yirik va muhim qo‘llanma sifatida Sharqda ham, G‘arbda ham juda mashhur bo‘lgan. Zamaxshariyning “Muqaddimatul adab” (Adabiyot ilmiga kirish) asari Xorzamshohlardan Abdul Muzaffar Otsizga bag‘ishlanib yozilgan. Asar 5 ta qismga bo‘linib, ularda otlar, fe’llar, bog‘lovchilar, ot o‘zgarishlari, fe’l o‘zgarishlari haqida bahs yuritiladi[6:495]. Turkiyshunoslik, jumladan o‘zbek tilshunosligining shakllanishi va rivojida hanuzgacha muallifi noaniq bo‘lgan “At-

tuhfat uz-zakiyati fil lug'at it-turkiya" asari ham muhim o'rin egallaydi. Asar ko'proq qipchoqlar tili materiallariga asoslanib yozilgan. Ba'zi o'rinlarida uning materiallari turkman tili bilan solishtirilgan. Bugungi qipchoq guruhiga mansub bo'lgan tillarning tarixini, shuningdek, o'zbek xalqining shakllanishida katta etnik guruh bo'lib qo'shilgan qipchoq shevalari tarixini o'rganishda mazkur asar eng mo'tabar manba bo'lib xizmat qiladi. Asarning yana bir muhim jihati shundaki, unda turkiy tillarning fonetikasi, so'z yasalishi, morfologiyasi, sintaksisi bo'yicha izchil ma'lumotlar berilgan.

XX asrning 20-yillarida yaratilgan A.Fitratning "Sarf", M.Qori, Q.Ramazon va Sh.Zunnunlar muallifligida nashr qilingan "O'zbekcha til saboqlig'I" asarlarida bog'lovchi termini qayd qilinmaydi, biz bog'lovchi deb yuritadigan so'zlar ko'makchi so'zlar deb yuritilgan[7:260]. XX asr boshlaridagi tadqiqotlarda yordamchi so'z turkumlarini chegaralashda bir xillik kuzatilmaydi. Xususan, bugungi kunda biriktiruv bog'lovchilar qatorida sanaladigan aksariyat so'zlar ko'makchilar sifatida qaralgan yoki teng bog'lovchilar qatoriga ergashtiruvchi bog'lovchilar ham kiritilgan.

XX asr boshlarida tilshunoslik asarlarida bog'lovchilarning ifodalanishi va izohlanishi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan J.Qodirov A.Fitratning ***tag'in, daxi, bilan, ila, la, hamda*** biriktiruv bog'lovchilarini qabatlov ko'makchilari deb nomlaganligini aytib o'tar ekan, ***"qabatlov"*** so'zini **"yoniga olmoq"** ma'nosida qo'llangan va o'zining ***"ikki ma'noni yig'ib"*** tushunchasidan kelib chiqqan, boshqacha aytganda, hozirgi tushunchalar doirasida izohlansa, bu iborani uyushiq bo'laklarni va bog'langan qo'shma gaplarni o'zaro bog'lashi deb tushunish lozim deb hisoblaydi. Tadqiqotchi "O'zbekcha til saboqlig'i"ning IV bo'limida bunday bog'lovchilar "bog'lov ko'makchilari" deb yuritilganligini ta'kidlab, "…bir necha

gapni yoxud gap bo‘laklarini bir-biriga bog‘lamoq uchun” qo‘llanishini aytadi . Biroq keltirgan misollari ichida va, ham, hamda bog‘lovchilari, -da -u bog‘lovchi o‘rnida qo‘llanadigan yuklamalar biriktiruv bog‘lovchilari sanalishini, faqat -ki, -kim aniqlov bog‘lovchisi shu qatorga xato kiritilganligini to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tgan. Zidlov bog‘lovchilari “chiqarish ko‘makchisi” (A.Fitrat), ters ko‘makchilari (“O‘zbekcha til saboqlig‘i”) deb nomlangan bo‘lsa, inkor bog‘lovchisi alohida ajratilmagan. Ko‘p o‘rinlarda bog‘lovchilar ko‘makchi, yuklama, modal so‘zlar bilan aralashtirib yuborilgan.

Hozirgi kunda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilshunoslik yo‘nalishlarida yangi ma’lumotlar yuzaga kelmoqda. Xususan, o‘zbek tilida ham vaqt o‘tishi bilan yangi tushunchalar, atama va birliklar aniqlanmoqda. Xususan, o‘zbek tilida ham vaqt o‘tishi bilan yangi tushunchalar, atama va birliklar aniqlanmoqda. Bu kabi yangiliklarni yordamchi so‘z turkumi misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ma’lumki, o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlar guruhiga bog‘lovchi, ko‘makchi va yuklama kiradi. Ularning har biri o‘ziga xos xarakterga va tuzilishga ega. Ko‘makchilar ular orasida eng ko‘p tasnif qilinuvchi yordamchi so‘z hisoblanadi. Chunki ko‘makchilar boshqa yordamchi so‘zlar-bog‘lovchi ,yukalamalardan farqli ravishda mustaqil ma’nosini qisman bo‘lsa-da yo‘qotmagan so‘zlardir. Shuningdek, ko‘makchilar so‘zning sintaktik xususiyatini belgilab, gap bo‘lagi sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Ma’lumot o‘rnida shuni aytish kerakki, o‘zbek tilidagi ko‘makchilarga birinchi bo‘lib mukammal ta’rifni professor A.N.Kononov bergan: “Ko‘makchilar shunday bir gruppa so‘zlariki, ular ot bilan yoki obyekt bilan predikat orasidagi qurol-vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo‘nalish, o‘xshatish kabi munosabatning yaratilishida xizmat qiladi. Ko‘makchilar ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin keladigan so‘zlar bo‘lib, boshqa so‘z turkumlaridan

ko'makchiga aylangan so'zlardir. Ularning ba'zilari mustaqil ma'nosini qisman,ba'zilari esa butkul yo'qotgan. Mustaqil ma'nosini qisman yo'qotgan so'zlar ko'makchilar gapning ma'lum o'rinlarida mustaqil so'z bo'lib keloladi. Shu xususiyatiga, ya'ni mustaqil ma'nosini yo'qotishyo'qotmasligiga ko'ra ko'makchilarni ikki guruhga bo'lib o'rganamiz:

1. Sof ko'makchilar.
2. Vazifadosh ko'makchilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Усмонов Умумуий тилшунослик. – Тошкент, 1972. – Б.11.
2. Кодухов В.И. Введение в язıкознание. – М., 1987. – с. 232.
3. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент., 1975. 1-жилд. – В.541.
4. Виноградов В.В. Русский язık. – Москва, 1986. – с. 555.
5. Шахматов А.А.Синтаксиси русского языка. Вıп. 2. – Л., 1944. – с.97.
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12-жилд. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006. – 495 б.
7. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
8. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
9. Xurramovna, Q. G., & Donaboyevna, S. M. (2025, November). " Layli va Majnun" dostonida onomastik birliklar. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY* (Vol. 2, No. 5, pp. 157-158).
10. Komilovna M. S. Hydronims Formed by the Method of Syntactic and Transonimization //World Bulletin of Social Sciences. – T. 37. – C. 16-18.

11. Dilshoda, A., Dilfuza, T., Muxlisa, M., & Dildora, A. (2025). MAXTUMQULI SHE'RIYATIDA HAYOTIYLIK. SHOKH LIBRARY, 1(11).
12. Abdurashidovich M. A. LINGUISTIC APPROACH TO NESTED DICTIONARIES AND THEIR HISTORICAL DEVELOPMENT //Multidisciplinary and Multidimensional Journal. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 144-147.
13. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). "LISON UT-TAYR" DOSTONINING BOBLAR BO 'YICHA TASNIFI. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, *17*(02), 117-121.
14. Najibullo, S., & Manzura, B. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES [J]. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *11*(02).
15. Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna, Abduhakimova Shahlo Shuxratjon qizi. (2026). INGLIZ TILI SINFLARIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'ZARO HAMKORLIGI NAZARLARI: DUXTAT TAHLILI. *Efiopiya xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqotlar jurnali* , *13* (03), 1266–1270.
16. Iboralarni uslublarga ajratish mezonlari: nazariy va amaliy yondashuv (frazeologik birliklar stilistik tahlili asosida). (2025). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY*, *2*(6), 12-16.
17. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.

18. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SOZ TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34-37.
19. Nodira Hamidova. (2024). G'AFUR G'ULOM HIKOYALARIDA SO'Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 139–142.
20. Tulkinjon, K. (2020). About historiography of historical geography of northern Bactria. *Journal of Critical Reviews*, *7*(18), 748-758.